



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-diagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING INTERFAOL METODLARI

Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari tahlil qilinadi. Muallif tanqidiy fikrlashning tarkibiy qismlari, uni shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy interfaol usullar (bahs-munozara, "Olti shlyapa", "Klaster", "Bilimlar daraxti", keys-stadi va boshqalar) hamda ularning pedagogik samaradorligi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, metodlarni dars jarayonida bosqichma-bosqich qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, bahs-munozara, "Olti shlyapa" usuli, refleksiya, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article analyzes interactive methods for developing critical thinking in secondary school students. The author discusses the components of critical thinking, modern interactive techniques used to develop it (debate, the "Six Thinking Hats" method, "Cluster", "Knowledge Tree", case study, etc.), and their pedagogical effectiveness. Practical recommendations for the step-by-step application of these methods during lessons are also provided.

Key words: critical thinking, interactive methods, debate, "Six Thinking Hats" method, reflection, learning effectiveness.

Аннотация: В данной статье анализируются интерактивные методы развития критического мышления у учащихся общеобразовательных школ. Автор рассматривает компоненты критического мышления, современные интерактивные методы, применяемые для его формирования (дискуссия, метод "Шести шляп", "Кластер", "Дерево знаний", кейс-стади и др.), а также их педагогическую эффективность. Также даются практические рекомендации по поэтапному применению этих методов в ходе урока.

Ключевые слова: критическое мышление, интерактивные методы, дискуссия, метод "Шести шляп", рефлексия, эффективность обучения.

KIRISH

XXI asr – axborot to'liqini, sun'iy intellekt, global muammolar va tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar asri. Bunday davrda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – nafaqat bilim berish, balki o'quvchini mustaqil, mas'uliyatli va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Axborotlar oqimi haddan tashqari ko'paygan, ba'zida ular bir-biriga zid, chala yoki noto'g'ri bo'lgan bir paytda, o'quvchi qaysi ma'lumotga ishonish, qaysi birini rad etish, qanday xulosa chiqarish va qanday qaror qabul qilishni bilishi zarur. Aynan tanqidiy fikrlash ana shunday qobiliyatlarning asosini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotni yuzaki qabul qilmasdan, uni chuqur tahlil qilish, asoslilik, ishonchlilik va mantiqiylik nuqtai nazaridan baholash, turli nuqtai nazarlarni solishtirish, kuchsiz va kuchli dalillarni ajrata olish, shuningdek, asoslangan xulosalar chiqarish hamda o'z pozitsiyasini dalillar bilan himoya qilish qobiliyatidir. Xalqaro miqyosda o'tkazilgan PISA, TIMSS, PIRLS kabi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, tanqidiy fikrlash ko'nikmasi rivojlangan o'quvchilar nafaqat akademik jihatdan yuqori natijalarga erishadi, balki hayotiy muammolarni hal qilishda, kasb tanlashda va ijtimoiy munosabatlarda ham muvaffaqiyatli bo'lishadi.

Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar (lotincha inter – o'zaro va action – harakat) – bu o'quvchilarning bir-biri bilan va o'qituvchi bilan faol muloqot qilishiga, o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga, muammoli vaziyatlarda yechim izlashiga va fikrlash jarayonini boshqarishiga asoslangan



o'qitish usullaridir. An'anaviy "o'qituvchi aytadi – o'quvchi yozadi" modelidan farqli o'laroq, interfaol metodlar o'quvchini darsning markaziy subyektiga aylantiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarda nafaqat bilim, balki tahlil qilish, sintez qilish, baholash va yaratish kabi yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini (Bloom taksonomiyasi bo'yicha) rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Bahs-munozara metodlari (debatlar, "Aylanma stol", "Akvarium").
2. Aqliy hujum va assotsiatsiya usullari ("Klaster", "Bilimlar daraxti", "INSERT").
3. Simulyatsiya va rolli o'yinlar (keys-stadi, "Hakamlar hay'ati", "Matbuot anjumani").
4. Refleksiv metodlar ("Olti shlyapa", "Sinkveyn", "Jurnal" yozish).

Har bir guruh o'quvchining tafakkurini faollashtirish va uni dalillarga asoslangan xulosa chiqarishga yo'naltiradi.

a) "Olti shlyapa" usuli (Eduard de Bono)

Bu metod o'quvchilarga muammoni turli tomondan (faktlar, hissiyotlar, tanqid, optimizm, ijodkorlik va boshqaruv) ko'rish imkonini beradi. Har bir shlyapa rangiga mos fikrlash turi belgilanadi. Misol uchun, oq shlyapa – faqat faktlar, qizil shlyapa – hissiyotlar, qora shlyapa – tanqid va xatarlar. Ushbu usul o'quvchilarda bir tomonlama qarashdan voz kechish va vaziyatni har tomonlama tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Bahs-munozara (debat)

O'quvchilar ma'lum bir tezisni himoya qiladi yoki unga qarshi dalillar keltiradi. Bu jarayon ularni oldindan tayyorgarlik ko'rish, ishonchli manbalardan foydalanish, mantiqiy zanjir qurish va raqibning argumentlarini rad etishga o'rgatadi.

b) Keys-stadi (vaziyatli masalalar)

Haqiqiy yoki sun'iy muammoli vaziyat beriladi. O'quvchi uni tahlil qilib, yechim taklif qilishi kerak. Bu metod tanqidiy fikrlashning eng muhim jihati – muammoni ko'rish va uni hal qilish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi.

c) Klaster metodi

Biror mavzu yoki tushuncha markazga yoziladi, undan chiqadigan o'qlarga o'quvchilarning fikrlari, assotsiatsiyalari, dalillari va qarshi dalillari yoziladi. Bu o'quvchiga tizimli va tarmoqli fikrlashni o'rgatadi.

d) Refleksiv yozuvlar ("Sinkveyn", "ERUE" jadvali)

O'quvchi o'z bilish jarayonini baholaydi, nimani bilganini, nimani yangi o'rganganini va nima noaniq qolganini yozma ravishda ifodalaydi. Bu metakognitiv ko'nikmalarni, ya'ni o'z fikrlash jarayoni ustida fikr yuritishni rivojlantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Interfaol metodlardan kutilgan samaraga erishish uchun quyidagi bosqichlarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

1. **Tayyorgarlik bosqichi:** mavzu, muammo va tanlanayotgan metod aniqlanadi. O'quvchilar guruhlarga bo'linadi (agar kerak bo'lsa).
2. **Yo'naltiruvchi bosqich:** o'qituvchi metodning qoidalari, vaqt chegarasi va kutilayotgan natijani tushuntiradi. Tanqidiy fikrlash uchun asosiy savol beriladi.
3. **Amaliy ish bosqichi:** o'quvchilar interfaol metod asosida ishlaydi, ma'lumotlarni tahlil qiladi, bahs yuritadi va yechim taklif qiladi.
4. **Taqdimot va himoya bosqichi:** guruhlar o'z xulosalarini taqdim etadi, boshqa guruhlar savollar beradi va dalillarni baholaydi.
5. **Refleksiya va baholash bosqichi:** o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda fikrlash jarayonini tahlil qiladi, qanday mantiqiy xatolar bo'lgani hamda qanday kuchli dalillar keltirilgani muhokama qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchi ko'proq tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etsa, interfaol metodlar qo'llanilganda u bilimlarni mustaqil tahlil qiluvchi, baholovchi va xulosalar chiqaruvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Tahlillar natijasida "Olti shlyapa" metodidan foydalanish o'quvchilarning muammoni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish ko'nikmasini rivojlantirishi aniqlandi. Mazkur metod orqali o'quvchilar bir masalaga faktlar, hissiyotlar, ehtimoliy xavflar, ijobiy jihatlar va ijodiy yechimlar nuqtai nazaridan yondashishni o'rganadilar. Natijada ularda har tomonlama fikrlash va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi.

Bahs-munozara metodining qo'llanilishi esa o'quvchilarning dalillash, o'z fikrini himoya qilish va qarama-qarshi fikrlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bahs jarayonida o'quvchilar ishonchli manbalarni izlashga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va mantiqiy xulosalar chiqarishga intiladilar. Bu esa tanqidiy fikrlashning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Keys-stadi metodidan foydalanish o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi. O'quvchilar real hayotiy vaziyatlarni o'rganish orqali muammoning sabab va oqibatlarini aniqlash, mavjud alternativlarni baholash hamda eng maqbul qarorni tanlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Klaster va "Bilimlar daraxti" metodlari o'quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini tartibga soladi, yangi g'oyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi va ma'lumotlarni mantiqiy guruhlariga ajratadi. Natijada o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Refleksiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning o'z fikrlash jarayonini baholash, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va keyingi faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Refleksiya jarayonida o'quvchi o'zining bilim darajasi, yutuqlari va qiyinchiliklari haqida xulosa chiqaradi, bu esa tanqidiy fikrlashning yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, interfaol metodlarning tizimli va maqsadli qo'llanilishi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, dalillash, muammolarni hal etish hamda asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Olingan natijalar interfaol metodlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tanqidiy fikrlash – bu zamonaviy ta'limning strategik maqsadi bo'lib, uni rivojlantirishda interfaol metodlar eng samarali vosita hisoblanadi. "Olti shlyapa", debat, keys-stadi, klaster va refleksiv usullar o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol tahlilchiga aylantiradi. Ushbu metodlarni dars jarayonida tizimli, bosqichli va maqsadli qo'llash o'quvchilarning nafaqat darsdagi, balki kundalik hayotidagi qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. De Bono, E. Six Thinking Hats / E. De Bono. - Boston: Little, Brown and Company, 1985. - 207 p. - ISBN 0-316-17791-1.
2. Де Боно, Э. Шесть шляп мышления = Six Thinking Hats / Э. Де Боно. - Минск: Попурри, 2006. - 208 с. - ISBN 985-483-680-0.
3. Halpern, D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking / D.F. Halpern. – 5th ed. – New York: Psychology Press, 2013. - 637 p. - ISBN 978-1-84872-629-1.
4. Mirzaraxim, Z. Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. - 2025. - T. 1. - № 1. - B. 256-261.
5. Abdualiyevich, Z.M. Bo'lg'usi o'qituvchilarning persektiv qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. - 2025. - T. 1. - № 1. - B. 136-139.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.